

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

AVGUST, 2025

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 7-avgust

Mas'ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Bozorboyev Abbasjon, Ravshanov Shavkat

KUNJUT O'SIMLIGINING XUSUSIYATLARI VA UNING HOSILINI YIG'ISHTIRIB OLISHDAGI MUAMMOLARI..... 6-9

Iskandarov Orifxon

TIRIKOTAJ MATOLARIDA SIFAT NAZORATI..... 10-12

Odinayev Mirjalol

"AI-TRANSLATE" TEXNIK HUJJATLARNI SUN'YI INTELLEKT ORQALI AVTOMATIK TARJIMA QILISH VA HUQUQIY MASLAHATLAR AXBOROT TIZIMI – TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISHDA INNOVATSION YECHIM 13-18

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Karimov Nurbek

TURLI USULDA YERGA ISHLOV BERISHNI SOYA PARVARISHLANGAN MAYDON TUPROG'INING SUV O'TKAZUVCHANLIGIGA TA'SIRI 19-22

TARIX FANLARI

Bobojonova Zuxra

TEMURIY MALIKALARNING HUKMDORLAR HAYOTIDAGI O'RNI..... 23-25

Xalilov Baxodir

ZAMONAVIY KUTUBXONALARNING MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMDAGI O'RNI: NAVOIY VILOYATI MISOLIDA..... 26-31

Xoliqova Ra'noxon

"MARKAZIY OSIYODA SUN'YI INTELLEKT TUFAYLI AYOLLAR IMKONIYATLARI: STEM TA'LIMI, GENDER TENGLIGI VA IQTISODIY FAOLLIK SSENARIYLARI" 32-34

Xasanova Nargiza

YANGI DAVR: ILM-FANI INNOVASIYALARIDA AYOL-QIZLAR ISHTIROKINING DOLZARB AHAMIYATI..... 35-38

IQTISODIYOT FANLARI

Salomov Temurbek

THE ROLE OF PILGRIMAGE TOURISM IN ENHANCING THE SERVICE SECTOR: A CASE STUDY OF UZBEKISTAN..... 39-43

Raxmanov Ulugbek

TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING HISOBVARAQLAR REJASIGA MUVOFIQ TAHLILY AVTOMATLASHTIRILGAN NAZORAT MEXANIZMINI YARATISH 44-45

Toshtemirov To'liqin

KICHIK TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINING SUN'YI BO'LINISH MUAMMOLARI..... 46-49

Mansurova Sayyora

INNOVATSION PROPTECH-PLATFORMALAR VA ULARNING KO'CHMAS MULK BOZORIGA TA'SIRI 50-53

Rajabov Alibek

INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKKLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARIH..... 54-57

Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda

EFFECTS OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT ENVIRONMENT: LESSONS FROM GLOBAL EXPERIENCES..... 58-60

FALSAFA FANLARI

Abdullayev Sodiqjon

MILLIY O'ZLIKNI TIKLASH JARAYONIDA EKOLOGIK TAFAKKUR VA SALOMATLIK

QADRIYATLARI..... 61-66

Gafurova Munajat

O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDAGI JAMIYAT VA

DAVLAT O'RTASIDAGI DIALEKTIK MUNOSABATLARI..... 67-70

Davronov Bahodir

SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA AXBOROT MUHITINING GUMANITAR QADRIYATLARGA

NISBATAN ASIMMETRIK MUNOSABATI..... 71-76

Latipov Sardor

KORRUPSIYANING TARIXAN SHAKLLANISHI VA TURLARI..... 77-81

FILOLOGIYA FANLARI

Xoliyorova To'lg'anoy

O'ZBEK TILI MILLIY KORPUSINING TA'LIM VA ILMIY TADQIQOTLARDAGI O'RNI..... 82-83

Ro'ziyev Temur

ADABIY-ESTETIK QARASHDA TAFAKKUR VA TUYG'UNING O'RNI..... 84-92

Gulmuradova Sobira

"XUSHKELDI" DOSTONI MATNI TARKIBIDAGI ETNOGRAFIKMLARNING MILLIY –

MADANIY XUSUSIYATLARI..... 93-95

Qosimova Malika

SINXRON TARJIMADA MASHINA TARJIMASINING AFZALLIKLARI XUSUSIDA..... 96-99

Bahromjonova Shahnoza

HODI ZARIF VA YANAGITA KUNIO ILMIY MEROSI:

FOLKLORSHUNOSLIKDA QIYOSIY TAHLIL..... 100-102

Ayimbetova Damekhan

ZAMONAVIY INGLIZ SHE'RIYATIDA HAYVONLARNI

TASVIRLASHNING O'ZIGA XOSLIKLARI..... 103-107

YURIDIK FANLARI

Komilov Avazbek

INTIZOMIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDA ISH QO'ZG'ATISH HAQIDAGI QAROR,

UNING SHAKLI VA MAZMUNIGA NISBATAN TALABLAR..... 108-110

Shamsitdinova Manzura

TEACHING LISTENING COMPREHENSION..... 111-112

Xadjiyev Azizbek

"IJTIMOIY ADOLAT" TAMOIYILINING XALQARO QONUNCHILIK

AMALIYOTIDA YORITILISHI..... 113-116

Уктамов Комрон

РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРАНСГРАНИЧНЫХ ВОД ПЕРВЫМ ВОДНЫМ КОДЕКСОМ

РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН..... 117-123

<i>Исмоилов Бехрузбек</i> <i>ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН</i>	124-129
--	---------

PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Qo'shmurodova Aziza</i> <i>BOSHLANG'ICH SINFLARDA VATANGA MUHABBAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM METODLARINI QO'LLASH</i>	130-133
---	---------

<i>Mamatqosimova Nodira</i> <i>SSENARIY YARATISHDA BADIY ADABIYOT NAMUNALARIDAN FOYDALANISH USULLARI</i>	134-137
---	---------

<i>Sattoriy Shohruh</i> <i>TA'LIM SIFATI USTIDAN NAZORAT MEXANIZMLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH</i>	138-141
--	---------

<i>Jabborova Umida</i> <i>TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TEXNIK SAVODXONLIGINI ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI</i>	142-144
---	---------

<i>Xujanazarova Nozima</i> <i>RAQAMLI PLATFORMALARDA IQTISODIY MATNLARNI TARJIMA QILISHGA YO'NALTIRILGAN INTERAKTIV O'QUV TOPSHIRIQLARI VA KEYS-STADIYALARNI YARATISH</i>	145-148
--	---------

<i>Aripjanova Dinora</i> <i>RAQOBATBARDOSH RAHBAR SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA MOTIVATSIYA MEXANIZMLARINING SAMARALI MODELI</i>	149-151
---	---------

<i>Dosanova Gulbanu</i> <i>OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI</i>	152-154
--	---------

<i>Isokov Ravshanbek</i> <i>INNOVATIVE APPROACHES TO FOSTERING HISTORICAL MEMORY AND CULTURAL IDENTITY IN STUDENTS</i>	155-160
---	---------

TIBBIYOT FANLARI

<i>Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza</i> <i>XOSHIMOTO TIREOIDITINING KECHISHIDA RUXNING O'RN</i>	161-163
---	---------

<i>Nabiyeva Umida</i> <i>GIPERTONIYANING KELIB CHIQISHI VA OLDINI OLISHNING ZAMONAVIY TAMOIYILLARI</i>	164-166
---	---------

PSIXOLOGIYA FANLARI

<i>Polvanov Rasulbek</i> <i>INTERNET QARAMLIGI VA SHAXSNING IJTIMOY MOSLASHUVIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR ZAMONAVIY MAUGLI SINDROMI KONTEKSTIDASH</i>	167-172
---	---------

<i>Усманова Лилия</i> <i>ТИПОЛОГИЯ СЕМЬИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ТРАДИЦИИ, ТРАНСФОРМАЦИИ И СОВРЕМЕННЫЕ ВЫЗОВЫ</i>	173-176
---	---------

PEDAGOGIKA FANLARI

BOSHLANG'ICH SINFLARDA VATANGA MUHABBAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM METODLARINI QO'LLASH

Qo'shmurodova Aziza Akbar qizi

Magistr

Email: azizaqoshmurodova@gmail.com

Tel: +998 91 465 38 56

Qashqadaryo, O'zbekiston

Annotatsiya. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar har bir sohada, jumladan, ta'lim tizimiga ham tez sur'atda kirib kelmoqda. Bu ta'lim jarayonida ko'pgina imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Ushbu tezisda boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarda Vatanga muhabbatni shakllantirishda samarali bo'lgan raqamli texnologiyalar asosida integratsiyalashgan hamda interaktiv metodlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, integratsiya, vatanparvarlik, interaktiv metod, innovatsiya, ta'lim jarayoni.

USING INTEGRATED TEACHING METHODS BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES IN FORMING THE FEELING OF LOVE FOR THE MOTHERLAND IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Aziza Akbar qizi Qo'shmurodova

Master's student

Email: azizaqoshmurodova@gmail.com

Phone: +998 91 465 38 56

Qashqadaryo, Uzbekistan

Annotation. In recent years, digital technologies have rapidly entered every field, including the education system. This has created many opportunities in the educational process. This thesis analyzes integrated and interactive methods based on digital technologies that are effective in fostering a love for the homeland among students in the primary education process.

Key words: digital technology, integration, patriotism, interactive method, innovation, educational process

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar asosida dars jarayonini tashkil etish rivojlanayotgan mamlakatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda bu kabi yondashuvlar o'quvchilarning diqqatini, darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlashni rivojlantiradi hamda bilimlarni chuqurroq hamda tezroq o'zlashtirishda yordam beradi.

Ta'lim tizimi raqamli texnologiyalarga singib ketayotgani shunchaki hayratlanarli emas, chunki, bugungi kunda axborot makonida taklif etilayotgan ko'plab narsalarni jiddiy tahlil qilish va pedagogik asoslash uchun zamin yaratadi. So'nggi yillarda ta'limni "raqamlashtirish" muammolari, uning shakllanishiga ta'siri bo'yicha biror-bir davlat loyihasi yoki so'rovnoma asosida tadqiqotlar o'tkazilmaganligi ham muhimdir [1]. Yangilanayotgan ta'lim jarayonida ham yuqoridagi kabi muammolar ko'plab topiladi, ayniqsa, boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalarga foydalanishda bir qator muammolar mavjud. Bu muammolarga: barcha

maktablarda moddiy-texnik bazaning yetishmasligi, AKT vositalari bilan to'liq ta'minlanmaganligi, o'qituvchilarning kompyuter savodxonlik darajasi yuqori emasligi va boshqalar kiradi. Bu muammolar asta-sekin bartaraf etib borilsa ta'limda, ayniqsa, boshlang'ich ta'limda katta samaradorlikka erishish mumkin. Chunki, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni, interaktiv doskalar, planshetlar, ta'limiy mobil ilovalar, shuningdek multimediali darslar o'quvchilarda faollik va qiziquvchanlikni oshiradi. Bu ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarning yosh xususiyatlariga, vizual o'rganish uslublariga mos tushadi.

Dars jarayonida ham samaradorlik ko'rsatkichini oshirish maqsadida raqamli texnologiyalarga asoslangan interaktiv metodlarni qo'llash, metodlarni vizual yoki ko'rgazmali shaklda o'tkazish mumkin. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hamda dars talabini aniqlab olish lozim.

Boshlang'ich maktab fanlarining integratsion aloqalari kam ishlab chiqilgan bo'lib, qarama-qarshi ifodalangan. Bu aloqalarning mohiyati haqida olimlar orasida qarama-qarshiliklar ko'p. Integratsiya lotincha "integratio" - tiklash, to'ldirish, "integer" - butun so'zidan kelib chiqqan. [2]

So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasida ta'lim sohasida ko'plab ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilib, milliy o'zlikni anglash, moddiy va ma'naviy qadriyatlarning yangi qirralari yuzaga keldi. Rivojlanayotgan mamlakatimizda yoshlarni iymon-e'tiqodi mustahkam, milliy qadriyatlarni qadrllovchi, milliy g'urur, Vatanga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish vazifasi pedagogik zaruratga aylandi. Bu davlat tomonidan e'tibor qaratilayotgan asosiy masalalardan biridir. Bu borada, ayniqsa, pedagoglar zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi. Bu yo'lda bizga o'quvchilarga ham ko'rsatmali, ham ovozli bo'lgan multimediali ilovalar katta yordamchi bo'la oladi. O'quvchilarga tarixiy obidalar, bizning tarixiy siymolarni aynan videorolik holida ko'rsatish orqali, o'quvchiga qiziqarli bir shaklda xotiralariga mustahkam o'nashishi mumkin.

Bundan tashqari yana ko'plab interaktiv metodlarni qo'llash mumkin. Masalan, "Insert", "3-2-1" metodi, "Uchinchisi ortiqcha" o'yini, "Beshbarmoq", "Gulword", "O'rgimchak to'ri" metodlari kabilar o'quvchilarning yosh xususiyati hamda o'zlashtirish darajasini inobatga olgan holda o'tkazish mumkin. Yuqoridagi metodlar dars jarayonida o'qituvchiga fanlarni integratsiya qilishga, har darsda yangi bir tushunchani yetkazib berishda, nafaqat o'qish, tarbiya darslarida balki barcha fanlarda o'quvchilarga vatanparvarlikni, uyimizni sevishni, asrashni, ayniqsa, dolzarb muammolarimizdan biri bo'lgan ekologiyaga ham bog'lab o'tishimizda katta yordam bera oladi. Bunda mavzu va fandan katta "sakrash", ya'ni, uzoqlashish bo'lmay, o'yin yoki metod orqali mavzuga bog'lab tushuntiriladi. Bunday metodlarning afzalliklari juda ko'p: o'quvchilarning diqqatini jamlab beradi, qiziqishini kuchaytiradi, o'quvchilarning nutqi va fikrlash malakasini rivojlantiradi, ularni faol va mustaqil shaxs sifatida shakllanishlariga yordam beradi, ijtimoiy hamda jamoaviy ko'nikmalarni rivojlantiradi, darslarni jonli va esda qolarli bo'lishini ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinflarda, ayniqsa, 1-2 sinflarda asosan o'yin tarzidagi metodlarni qo'llash tavsiya qilinadi. Chunki, bu sinflardagi bolalarning diqqati qisqa bo'ladi va tez chalg'iydi. Shunday paytlarda har qanday fanda ham raqamli, sanoqqa asoslangan o'yinlar o'ynash diqqatni jamlashga va chaqqonlikni oshirishga yordam beradi. Sinf xonasidagi doskada, televizor yoki kompyuterda rasm ko'rsatiladi va ichida "yashirilgan raqamni top" buyrug'i

beriladi. Bunda rasm barcha bolalarga ko'rinadigan holatda bo'lishi muhim. Bolalar raqamni qidirib barcha diqqatlarini o'qituvchiga qaratadilar. Yana barcha fan uchun mos keladigan metodlardan biri bu - "3-2-1" metodi. Bu metodni dars jarayonining yangi mavzuni mustahkamlash qismida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Yangi mavzu tushuntirilgach, o'quvchilar yangi mavzu asosida 3 ta muhim fakt, 2 ta qiziqarli ma'lumot, 1 ta savol yozadilar. Bu metodni 3-4 sinflarda o'tkazish samaraliroq. Chunki 1-2 sinflarda yozish ko'nikmasi sekinroq bo'lib, ko'p vaqt talab etadi. Keyingi metod bu- "Uchinchi ortiqcha" metodi. Bu metodni qo'llashda AKT dan foydalanish lozim. Ma'lum bir mavzudagi 3 ta rasm ko'rsatiladi va orasidan 1 tasi mavzuga aloqador bo'lmaydi. O'quvchilardan talab etiladigan narsa rasmning nega ortiqchaligini tushuntirib berish. Bu o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradi va kuzatuvchanlikni oshiradi. Bu metodni barcha fanlarga moslab qo'llash mumkin. "Gulword" boshqotirmasida, boshqotirma gul shaklida bo'ladi va barcha so'zlar 1 ta harfdan boshlanadi. Bunda o'qituvchi topishmoqlar yoki tavsiflovchi iboralar yordamida obyekt yoki tushunchani uch marta tasvirlaydi. Har bir tavsif asta-sekin soddalashadi. Ta'riflar osonlashgan sari o'quvchilarga beriladigan ballar ham kamayadi. Masalan; misol uchun:

- Birinchi tavsifdan keyin boshqotirmaning yechgan talabalar 3 ball oladilar.
- Ikkinchi tavsifdan keyin hal qilganlar 2 ball oladilar.
- Nihoyat, uchinchi tavsifdan keyin javob bergan talabalarga 1 ball beriladi.

Masalan, 1 va 2-sinf o'quvchilariga "Vatan" tushunchasini tushunishga yordam berish uchun o'qituvchi quyidagi ta'riflar ketma-ketligini qo'llashi mumkin:

1. Siz tug'ilgan va yashayotgan joy.
2. Qalbingiz uchun aziz va oilangiz uchun uy.
3. Uning nomi "V" bilan boshlanib, "n" bilan tugaydi.

Bu usul nafaqat tanqidiy fikrlashni kuchaytiradi, balki faol ishtirokni rag'batlantiradi va mavhum g'oyalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Boshlang'ich ta'limda yosh o'quvchilarning o'ziga xos psixologik va ma'naviy xususiyatlaridan, masalan, ularga xos bo'lgan ishonchlilikdan foydalanish "O'qish" va "Tarbiya" kabi darslarning samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Qiziqarli va mazmunli sinf tadbirlarini tashkil qilish orqali o'qituvchilar o'quvchilarda o'z Vataniga sadoqat tuyg'usini tarbiyalashlari mumkin. Ushbu ma'naviy va hissiy aloqa ko'pincha o'qituvchilar tomonidan dars mavzularidan ilhomlangan hikoyalar, munozaralar yoki dramatizatsiyalar orqali yoqiladi. Xalq ertaklari, og'zaki ijodi, ayniqsa, xalq vatanparvarlari qahramonligi haqidagi rivoyatlarni tinglash bunga misol bo'la oladi. Bolalik o'ziga xos ishonch, taqlid, qiziquvchanlik, soddalik kabi fazilatlari bilan inson kamolotida o'chmas iz qoldiradi. Bunday ta'sirli hikoyalarni eshitgan bolalar ana shu qahramonlardan o'rnak olishga, o'z o'yinlariga ana shu qadriyatlarni singdirishga, el-yurt himoyachisi, fidoyi fuqarolar bo'lishga intiladilar. Raqamli texnologiyalar yordamida esa yuqoridagi ertak hamda hikoyalarni jonli tarzda ko'rsatishimiz mumkin. Bundan tashqari, badiiy asar ustida ishlashda o'quvchilarga asar qahramonlarini yoki o'zlari sevgan ertak qahramoni rasmlarini chizishlarini topshiriq sifatida berilsa va o'quvchilar chizgan qahramonlarni bugungi zamonaviy texnologiyalar orqali jonlantirishimiz mumkin. Bu esa bolalarni ilhomlantiradi, ijodkorlikni rivojlantiradi va o'qishda bo'lgan qiziqishi hamda motivatsiyasini oshiradi. Rasmlarni jonlantirishning turli xil usullari mavjud bo'lib, bunda eng ko'p tarqalgan va qulay usul bu - sun'iy intellekt yordamida tayyorlanadi. Masalan, Meta AI, DeepMotion va boshqalar. Yana bir boshqa usuli bu Power Point yoki Google Slides orqali

jonlantirish. Bunda rasmlarni slaydlarga joylashtirish va animatsiyalar qo'shish mumkin yoki oddiy harakatlar, effektlar qo'shish mumkin. Dars jarayonida bunday usullardan foydalanish darsni juda qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. O'quvchilar yana shunday mashg'ulot o'tilishi xohlashadi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, raqamli texnologiyalar asosida integratsiyalashgan metodlarni qo'llash boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni darsga jalb qilishda, ularni diqqatini jamlashda, ijodkorlik, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi. Bunday texnologiyalardan foydalanish o'qituvchilarga ham vaqtdan hamda resursdan tejashda ham katta yordamchi bo'la oladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Abdullayev M., Saidahrar G., Ayupov R. Raqamli iqtisodiyot - kadrlar tayyorlashning dolzarb yo'nalishlari. 2020-y.
2. Mavlonova R. A., Rahmonqulova N.H., Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi, Toshkent, "Ilm ziyo" 2009-y.
3. Erjigitova G. Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalarning ahamiyati, Ilmiy maqola.

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**
VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, avgust

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-
jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 7-avgust

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.